
MAHKUMLAR MUDDATIDAN ILGARI JAZODAN OZOD QILINDI

Jinoyat ishlari bo'yicha Oltiariq tuman sudi tomonidan mahkumlarga nisbatan xalqimizga xos insonparvarlik tamoyillari amalda qo'llanilib, jazoni o'tash tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan 14 nafar axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan mahkumlar JKning 73-moddasiga asosan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi.



Oltiariq tuman IIO Probatsiya guruhi tomonidan kiritilgan, sud hukmi bilan jazo o'tayotgan 14 nafar mahkumlarni jazosini muddatdan ilgari shartli ozod qilish haqidagi taqdimnomasi sudda ko'rib chiqildi.

Tuman sudi tomonidan 14 nafar axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan mahkumlar JKning 73-moddasiga asosan muddatidan ilgari ozod qilindi.

Joriy yilda Prezidentimiz tomonidan sudlar faoliyatini raqamlashtirish, sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligiga, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar yuzasidan tuman sudining raisi B.Ergashev tushuntirishlar berib o'tdi va barcha berilgan savollarga javob berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-30 17:45:05